



TILSHUNOSLIK TARIXI VA TILLAR XILMA-XILLIGI

Achilova Zulayho Hamidjonovna

SamDCHT Ingliz tili fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti Ingliz tili yo‘nalishi
2-bosqich 2401-guruh talabasi
zulayxoachilova60@gmail.com
+998952511187

Guliyeva Elnara Faxretdinovna

Katta o‘qituvchi
Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrası
SamDChTI

Annotatsiya: Ushbu maqola tarixiy tilshunoslik nuqtai nazaridan dunyo tillaridagi xilma-xillikni o‘rganadi. Tadqiqot tillarning kelib chiqishi, ularning evolyutsiyasi, dialektlar va til oilalari orqali til turlicha bo‘lishini yoritadi. Shuningdek, tillarning yo‘qolish xavfi va til xilma-xilligini saqlash masalasi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy tilshunoslik, tillar xilma-xilli, til oilalari, diaxronik, sinxronik, grammatik, transformatsiya.

KIRISH.

Tarixiy tilshunoslik tilda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘rganadi. Jumladan fonetik, grammatik va leksik transformatsiyalarini. Tillar xilma-xilligi esa tillarning turlicha bo‘lishi, ularning fonetik, grammatik va semantik xususiyatlarini o‘rganadi. Ushbu maqola ikkala nuqtai nazarni birlashtirib, tillarning tarixiy evakuatsiyasini va xilma-xilligini tahlil qiladi.

Tarixiy tilshunoslik — bu tilning tarixiy rivojlanishini, o‘zgarish jarayonlarini, qadimgi va hozirgi shakllari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi soha[1.2]. Tarixiy tilshunoslik ba’zi vaqtlarda diaxronik tilshunoslik deb ham yuritiladi. Bu termin yunoncha “dia” — “orqali, davomida” va “chronos” — “vaqt” so‘zlaridan olingan bo‘lib, tilning vaqt davomida qanday o‘zgarib borishini o‘rganadigan sohadir[1.4]. U til tarixini, so‘zlarning, tovushlarning yoki grammatik shakllarning o‘zgarish jarayonini kuzatadi. Bu yondashuv tilni dinamik tizim deb qaraydi — ya’ni til doim o‘zgaradi, rivojlanadi. Masalan, Ingliz tilidagi “knight” so‘zi qadimgi ingliz tilida “cniht” tarzida yozilgan va /k/ tovushi talaffuz qilingan. Keyinchalik /k/ tovushi tushib qolgan. Bu fonetik o‘zgarish diaxronik tahlil obyekti hisoblanadi. O‘zbek tilidagi “borurman” “boraman” shaklining paydo bo‘lishi ham tarixiy (diaxronik) o‘zgarishdir. Xulosa qilib aytganda diaxronik yondashuv tilda vaqt davomida sodir bo‘lgan evolyutsiyani, tarixiy o‘zgarishni o‘rganadi. Diaxronik tilshunoslikning teskarisi bu Sinxronik tilshunoslik. “Synchronic” so‘zi yunoncha “syn” — “birgalikda” va “chronos” — “vaqt” so‘zlaridan olingan. Sinxronik tilshunoslik tilni muayyan davrda (odatda hozirgi zamonda) qanday ishlatilayotganini o‘rganadi[1.5]. Bu yondashuv tilni statik tizim sifatida ko‘radi — ya’ni o‘zgarishsiz, mavjud holatida tahlil qiladi. Sinxronik tilshunoslik tildagi grammatika, fonetika, leksika, sintaksis kabi tizimlarning hozirgi holatini o‘rganadi [4.14]. Masalan, hozirgi ingliz tilida “go” fe‘lining hozirgi zamondagi shakllari: go, goes, going — bu sinxronik tahlil obyekti. Hozirgi o‘zbek tilida fe‘l zamonlarini (hozirgi, o‘tgan, kelasi) tahlil qilish ham sinxronik yondashuvga kiradi. Sinxronik yondashuv tilni hozirgi holatida yoki ma’lum bir davrda o‘rganadi, o‘zgarishlar tarixiga e’tibor bermaydi.

Tarixiy tilshunoslikning bir qancha asosiy vazifalari mavjud ular quyidagicha. Birinchisi tillar tarixini o‘rganish. Har bir tilning qanday paydo bo‘lganini, vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishlarga uchraganini aniqlaydi [6.11]. Masalan, qadimgi ingliz tili, o‘rta ingliz tili va so‘ngra zamonaviy ingliz tili. Ikkinchisi tillar o‘rtasidagi qarindoshlikni aniqlash. Qaysi tillar bir ildizdan chiqqanini (masalan, turkiy tillar, hind-yevropa tillari) tahlil qiladi. Uchinchisi til o‘zgarish qonuniyatlarini ochib berish. Fonetik (tovush), morfologik (so‘z



tuzilishi), sintaktik (gap tuzilishi) va leksik (soʻz boyligi) oʻzgarishlarning sabablari va yoʻnalishlarini oʻrganadi. Masalan, qadimgi “q” tovushi zamonaviy tilda “x” yoki “h” ga aylanishi — bu fonetik oʻzgarish qonunidir. Keyingisi, til yodgorliklarini tahlil qilish. Qadimgi yozma manbalarni (bitiklar, tosh yozuvlar, qoʻlyozmalar) oʻrganish orqali xalqning madaniy va ijtimoiy hayotini tiklaydi. Oxirgi vazifasi til taraqqiyotini bosqichma-bosqich qayta tiklashdan iborat. Soʻz va grammatik shakllarning tarixiy shakllarini aniqlab, tilning evolyutsiyasini tiklaydi.

Tarixiy tilshunoslik tilning paydo boʻlishi va rivojlanish qonuniyatlarini, soʻzlarning etimologiyasini yaʼni kelib chiqish asoslarini, dialekt va lahjalarning tarixini va tillar oʻrtasidagi oʻzaro oʻxshashlik va farqlarni oʻrganadi [5.8]. Shu bilan bir qatorda til oʻzgarishi tabiiy jarayon ekanini, tildagi qadimiy unsurlarni aniqlash va tahlil qilishni va til tarixidan xalqning madaniyati va tarixini bilib olishni oʻrgatadi.

Tarixiy tilshunoslikning jamiyat uchun insoniyat uchun ulkan foydasi mavjud. Jumladan, u bizga milliy oʻzlikni anglashga yordam beradi, chunki til tarixini oʻrganish jarayoni orqali xalqning qadimiy ildizlari, madaniyati va dunyoqarashi tiklanadi. Misol uchun, oʻzbek tili tarixini oʻrganish — oʻzbek xalqining tarixiy taraqqiyotini bilish demakdir. Tillararo madaniy aloqalarni ochadi. Turli xalqlar tillaridagi oʻxshashliklar orqali ularning qadimiy aloqalarini bilish mumkin. Til siyosatida ilmiy asos yaratadi. Yaʼni, davlat tili meʼyorlarini belgilash, lugʻat boyligini toʻgʻri rivojlantirish uchun tarixiy tilshunoslik muhim poydevor vazifasini bajaradi. Tarixiy tilshunoslik qadimiy matnlarni toʻgʻri tushunish va tarjima qilishga imkoniyat yaratishi orqali tarjima, filologiya va arxeologiya fanlariga yordam beradi.

Odamlar orasida tarixiy tilshunoslikka doir baʼzi bir notoʻri tushunchalar ham mavjud [1.3]. Jumladan, “Til oʻzgarsa, bu yomon” degan qarash. Aslida har bir tirik til oʻzgarishi bu tabiiy jarayon hisoblanib, bu faqat oʻsha tilning yaʼnada rivojlanib, boyiyotganidan dalolat beradi. “Tarixiy tilshunoslik faqat muayyan bir tilning oʻtmishini oʻrganadi xalos.” Toʻgʻri, lekin u oʻtmish orqali hozirgi tilni chuqur tushunish va kelajakdagi oʻzgarishlarni taxmin qilish imkonini beradi. “Bu fan faqat tilshunoslarga kerak.” Aslida, u tarixchilar, madaniyatshunoslar, tarjimonlar, adabiyotshunoslar uchun ham juda muhim. “Til tarixini bilish foydasiz.” Aksincha, til tarixini bilgan inson ona tilini toʻgʻri va ongli qoʻllaydi, soʻzlarning asl maʼnosini chuqur anglaydi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy tilshunoslik — bu tilning oʻtmishini tahlil qilib, uning hozirgi holatini tushuntiruvchi va kelajakdagi yoʻnalishini koʻrsatib beruvchi fan. U nafaqat tilshunoslar, balki har bir ongli inson uchun madaniy va maʼnaviy qadriyatlarni anglash vositasi hisoblanadi.

Til xilma-xilligi bir soʻz bilan olganda dunyoda mavjud boʻlgan turli tillar soni, ularning tuzilishi, talaffuzi, grammatikasi, soʻz boyligi va madaniy ifodasi orasidagi farqlar tushuniladi. Aynan bu hodisa insoniyat madaniyatining eng muhim boyliklaridan biridir, chunki har bir til xalqning tarixi, dunyoqarashi va qadriyatlarini oʻzida aks ettiradi. Masalan, Ingliz tili – global aloqa tili, Arab tili – diniy va tarixiy til, Xitoy tili – eng koʻp soʻzlashuvchilarga ega, Oʻzbek tili – turkiy tillar oilasiga mansub milliy til sanaladi. Bugungi kunda dunyoda taxminan 7 000 ta til mavjud [4.2]. Ammo bu tillarning yarmi yoʻqolish xavfi ostida, chunki ulardan koʻpchiligi faqat kichik jamoalar tomonidan ishlatiladi. Papua-Yangi Gvineyada 800 dan ortiq til bor, Nigeriyada 500 dan ortiq til mavjud, Yevropada esa atigi 200 ga yaqin til ishlatiladi.

Til xilma-xilligining shakllanishi yoki kamayishiga bir necha omillar taʼsir qiladi [2.11]. Ijobiy omillar: madaniy mustaqillik, mahalliy taʼlimda milliy tilni oʻqitish, tilni himoya qiluvchi qonunlar hisoblansa, migratsiya va urbanizatsiya, globalizatsiya, Ingliz tili kabi global tillarning ustunligi va kichik tillarning eʼtiborsizligi salbiy omillar sirasiga kiradi.

Tillar xilma-xilligini saqlab qolish ahamiyati koʻlami jihatdan yuqori hisoblanadi. Chunki u madaniy meros va identitetni saqlashga koʻmak beradi. Qolaversa, til — jamiyatning tarixiy xotirasi, ertaklari, anʼanalari, diniy va rituallari saqlanadigan asosiy vosita. Til yoʻqolsa, oʻsha xalqning oʻziga xos dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy bilimlari yoʻqoladi. Muayyan bir tilni asrab qolish orqali, oʻsha tilga bevosita va bilvosita bogʻliqlik jihati boʻlgan bir qancha unsurlarni asrab qolishimiz mumkin. Jumladan, bilim va intellektual boylikni saqlab qolish ham bevosita tillar xilma-xilligini saqlab qolishga bogʻliq, chunki koʻplab mahalliy tillarda tabiat, dori-oʻsimliklar, ekologik kuzatuvlar va amaliy tajribalar haqida noyob leksika va bilimlar mavjud. Bu bilimlar antropologiya, etnobotanika, ekologiya kabi fanlar uchun qimmatli manba boʻlib xizmat



qiladi. Shu bilan birga til tilshunoslik va ilmiy izlanishlar uchun asosiy manba hisoblanadi. Har bir til sintaksis, fonologiya, leksika jihatidan noyob strukturalarga ega va bu tilshunoslar uchun nazariy tadqiqot manbai sanaladi. Til xilma-xilligi til nazariyalarini boyitadi va inson til qobiliyatining umumiy qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Kognitiv va psixologik foydasi ham hech kimga sir emas. Ko‘p tillilik (bilingvalizm, multilingvalizm) — e’tibor, muammolarni hal qilish qobiliyati, ijodkorlik va kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi [3.6]. Iqtisodiy va rivojlanish jihatlariga qaraydigan bo‘lsak, mahalliy tillarda turizm, madaniy mahsulotlar, mahalliy media va ijodiy sanoat rivojlanishi mumkin. Shuningdek, ona tilida ta’lim va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish — mahalliy mehnat bozorida imkoniyatlarni ya’nada kengaytiradi. Yana bir jihatini ekologik barqarorlik bilan bog‘lash mumkin. Mahalliy tillarda saqlangan ekologik bilimlar (masalan, qishloq xo‘jaligi va biomuhofaza usullari) tabiiy resurslarni barqaror boshqarishda afzallik beradi. Tillar yo‘qolishi bilan ushbu amaliy bilimlar ham yo‘qoladi.

Tillar xilma-xilligini saqlash — bu faqat «tilni saqlash» emas; bu madaniy merosni, noyob bilimlarni, ijtimoiy adolatni va insonlarning ruhiy identitetini saqlashdir [5.10]. Har bir til — insoniyatning ma’naviy va ilmiy boyligidir. Tillar yo‘qolishini to‘xtatish uchun oiladan davlatgacha va texnologiyadan ta’limga qadar keng qamrovli, doimiy chora-tadbirlar talab etiladi.

Til insonlarni bir-biri bilan bog‘lovchi eng muhim aloqa vositasidir. Biroq, bir xil tilda so‘zlashuvchi barcha odamlar tildan bir xil tarzda foydalanmaydi. Tovush tizimi, so‘z boyligi va grammatik tuzilishdagi farqlar natijasida dialektlar paydo bo‘ladi [1.11]. Shuningdek, barcha tillar tarixiy va genealogik jihatdan til oilalari orqali o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Dialekt termini sheva deb ham yuritiladi. Dialekt — bu bir tilning hududiy yoki ijtimoiy jihatdan farq qiluvchi ko‘rinishidir. U talaffuz, lug‘at va grammatikada o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda, dialekt — bir tilda so‘zlashuvchi odamlarning tildan turlicha foydalanish shaklidir. Sheva hududiy joylashishiga qarab bir necha turlarga ajraladi. Dialektlarning ahamiyati madaniy va mintaqaviy o‘ziga xoslikni aks ettirish, tillarni biyitish va xilma-xilligini saqlash, tilning rivojlanishi va o‘zgarishini ko‘rsatishidir.

Til oilasi — bu umumiy ajdod tildan (ya’ni prototildan) kelib chiqqan tillar guruhidir [1.7]. Qanday qilib bir oilaning a’zolari umumiy ajdodga ega bolsa, tillar ham umumiy ildiz, grammatika va so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Tilshunoslar tillarni ularning tuzilishi, so‘z boyligi va tovush tizimidagi o‘xshashliklarga qarab oilalarga ajratadilar. Hind-yevropa tillar oilasi eng keng tarqalgan til oilasi hisoblanib, o‘z ichiga german, roman, slavyan, hind-eron, kelt va yunon tillar guruhini oladi. Eng ko‘p so‘zlashuvchilariga ega bo‘lgan til oilasi aynan hind-yevropa tillar oilasi hisoblanadi [4.7]. Bundan tashqari, sino-tibet, afro-osiyo, niger- kongo, oltoy, ural, dravid nomli tillar oilasi ham shakllangan.

Dialektlar va til oilalari tilshunoslikning eng muhim tushunchalaridandir. Dialektlar tilning ichki xilma-xilligini va madaniy boyligini ko‘rsatsa, til oilalari tillarning tarixiy ildizlari va ularning o‘zaro aloqalarini ochib beradi. Ularning har ikkalasi ham insoniyatning madaniy merosi va til taraqqiyotini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tarixiy tilshunoslik orqali tillarning evolyutsiyasi va tillar xilma xilligi tahlil qilinadi. Dialektlar, til oilalari va yo‘qolish xavfidagi tillar lingvistik farqlarni ko‘rsatadi va uni saqlash muhimligini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Campbell, L. (2013). Historical Linguistics: An Introduction. MIT Press.
2. Comrie, B. (1989). Language Universals and Linguistic Typology. University of Chicago Press.
3. Crystal, D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.
4. Trudgill, P. (2000). Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. Penguin.
5. Thomason, S. G., & Kaufman, T. (1988). Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics. University of California Press.
6. Ethnologue: Languages of the World. SIL International.